

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“Muhandislik” fakulteti

«O'zbekiston tarixi» kafedrası

Oliy ta'limning

5340100-“Iqtisodiyot”, 5140900-“Kasbiy ta'lim”,

5340400-**Biznesni boshqarish**, 5340600-“Moliya”, 5340900-

“Buxgalteriya hisobi va audit”, 5341700-**G'aznachilik ishi**, 5520700-

“Texnologik mashinalar va jihozlar”, 5521200-“Transport vositalarini

ishlatish va ta'mirlash”, 5540500-“To'qimachilik sanoati mahsulotlari

texlogiyasi”, 5540600-“Yengil sanoat mahsulotlari texlogiyasi”, 5524700-

Avtomobilsozlik va traktorsozlik yo'nalishlari talabalari uchun

“Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik”

fanidan test mashqlari to'plami bo'yicha

USLUBIY QO'LLANMA

Andijon – 2010

“TASDIQLAYMAN”
Andijon muhandislik–iqtisodiyot instituti
O`quv–uslubiy Kengashida ko`rib chiqilgan va ma'qullangan

Kengash raisi _____ A.Hakimov
(O`quv–uslubiy Kengashining ____-sonli bayonnomasi
« _____ » _____ 2010 y.)

«MA'QULLANGAN»
«Muhandislik» fakulteti Kengashida
muhokama qilingan va ma'qullangan
Kengash raisi _____ H.Sarimsaqov
(Fakultet Kengashining ____-sonli bayonnomasi
« _____ » _____ 2010 y.)

«TAVSIYA ETILGAN»
«O`zbekiston tarixi» kafedrasida
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri _____ U.Abdullayev
(Kafedra majlisining ____-sonli bayonnomasi
« _____ » _____ 2010 y.)

Taqrizchilar:

1. M.N.Nazarov – And MII «O`DJQNA» kafedrasida mudiri, f.f.n.dots
2. O.Toxirov - And MII “O`zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Tuzuvchilar: f.f.n. k.o`q. M.Karimova, ass. F.Taylaqova –“Ma'naviyat asoslari,
dinshunoslik” fanidan test mashqlari to`plami bo`yicha uslubiy qo`llanma: –A.:
AndMII, 2010 y.

So'z boshi

Bugun O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni faqat kasbi-kori yuzasidangina emas, balki ularning dunyoqarashi ma'naviyati, siyosiy yetuklik, ahloqiy barkamolligi va ijtimoiy faolligi jahatlarini ham e'tiborga olgan holda tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Ma'naviyat asoslari va dinshunoslik fanlarini bilish inson nazariy va amaliy faoliyatida ahamiyati kattadir. Ushbu fandan olgan bilimlarini og'zaki savol-javoblar, yozma ishlar yordamida aniqlashning o'rni katta. Lekin talabalarni to'plagan bilimlarini aniqlashga, sinashga test usulini qo'llash yanada samaraliroq bo'ladi. Chunki, test sinovi yordamida talabalarning butun kurs bo'yicha olgan bilimlari aniqlanadi. Ayni paytda har bir masala, har bir bo'lim bo'yicha talabaning qay darajada o'zlashtirgani aniqlash muhimdir. Test usuli faqat qo'lga kiritilgan bilimlarni sinash usuligina emas, balki shu bilan birga fikrlashning, bilim olishning ham usulidir. Bundan test usulini qo'llashning muhim ekanligi kelib chiqadi.

Taklif etilayotgan testlar to'plami ma'naviyat asoslaridan 110 ta dinshunoslikdan ham 110 savollardan iborat bo'lib, bu savollar o'zida ma'naviyat asoslari va dinshunoslik fanlarining Oliy o'quv yurtlari dasturi asosida deyarli barcha masalalarini qamrab olgan. Test savollari to'plami fanlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirish uchun talabalarga uslubiy qo'llanma sifatida yordam beradi. Talabalarning umumiy reytingini aniqlashda, o'qituvchi va talabalar uchun yordamchi ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

Ma`naviyat asoslari.

1. I.A.Karimov milliy–ma'naviy tiklanish konsepsiyasini o'zining qaysi asarida ifodalab beradi.

- A) Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.
- B) O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
- S) Barkamol avlod orzusi.
- D) O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.

2. I.A. Karimovning ma'naviyatga bergan ta'rifini aniqlang.

- A) Ma'naviyat- zot belgisi.
- B) Ma'naviyat-inson qalbidagi iloxiy nur.
- S) Ma'naviyat-avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodi, dinini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuch.
- D) Ma'naviyat-inson ahloqi, odobi bilimlari, iste'dodi, qobilyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlaridan bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizim.

3. Ma'naviyatning tarkibiy qismlarini ko`rsating?

- A) kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari;
- B) diniy va dunyoviy qarashlar;
- S) axloq, odob, bilim, ilm, iymon;
- D) axloqiy, badiiy, diniy, milliy qadriyatlar.

4. Ma'naviyatning nazariy manbaini fani tashkil etadi.

- A) Tarix;
- B) Etika va estetika;
- S) Falsafa;
- D) Madaniyatshunoslik;

5. Ma'naviyat asoslari fanini o`qitishning nazariy-metodologik asoslarini tashkil etadi.

- A) falsafa fani;
- B) tarix fani;
- S) xalqning milliy urf-odatlarini, tarixi, ma'naviyati;
- D) I.A.Karimovning ma'naviyat va ma'rifatga oid asarlari, nutqlari;

6. Fanning bilish tizimi nimadan iborat?

- A) xaqiqatlar, dalillar, kuzatishlar, g`oyalarnng oddiy yig`indisi.;
- B) jamiyat va insoniyat tajribasida to`plangan, tajriba sinovidan o`tgan bilimlar tizimidan;
- S) moddiy va ma'naviy madaniyatdan;
- D) qo`lyozma asarlar, yozuvlar, maktublar, qonunlardan;

7. Ma'naviyat asoslari fani quyidagi qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador?

- A) falsafa, tarix, matematika, etika;
- B) falsafa, etnografiya, fizika, estetika;
- S) falsafa, tarix, ximiya, etnografiya;
- D) falsafa, tarix, etnografiya, psixologiya;

8. Ma'rifatning lug`aviy ma'nosi?

- A) ilmi demakdir;
- B) ma'rifatli demakdir;
- S) bilish, tanish, bilim demakdir;
- D) ta'lim-tarbiya demakdir;

9. Ma'naviyatni uch guruhga bo`lish mumkin. Sizningcha ular qaysilar?

- A) qabila dinlari ma'naviyati, milliy dinlari ma'naviyati, jahon dinlari ma'naviyati;
- B) xristianlik, buddizm, islom ma'naviyati;
- S) milliy ma'naviyat, mintaqaviy ma'naviyat, umuminsoniy ma'naviyat;
- D) ma'naviyatni guruhlarga bo`lish mumkin emas.

10. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishni o'ziga hos yo'li nechta tamoyilni o'z ichiga oladi?

- A) bitta
- B) beshta
- S) ettita
- D) o'nta

11. "Ma'naviyat va iqtisodiyot qushning qo'sh qanoti" bu fikr kimga tegishli.

- A) Platonga
- B) A.N.Farobiyga
- S) A. Jalolovga
- D) I.A.Karimovga

12. Adolatli siyosat ta'rifini aniqlang.

- A) Xalq manfaatlariga hizmat qiladigan, mamlakatda tinchlik, barqarorlikning ta'minlashga qaratilgan siyosat.
- B) Faqat turli guruhlar va harakatlar xukmronligini ta'mirlanishiga hizmat qiladigan siyosat.
- S) Mamlakat ichki hayotida amal qiladigan siyosat.
- D) Moddiy-ma'naviy boyliklarni himoya qilishga qaratilgan siyosat.

13. Ma'naviyatni turlarini ko'rsating.

- A) Milliy, islomiy
- B) Umuminsoniy, diniy, islomiy.
- S) Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy.

D) dunyoviy, diniy, buddaviy

14. "Avesto" da inson ahloqi-odobi, ma'naviyati qaysi uchlikda ifodalangan.

A) Gumata, Gugta, Gvarshta,

B) Ho'rda, Avesto, Kichik Avesto.

S) Yasht, Yasna, Qo'rda.

D) Vendidod, Yasna, Yasht

15. Mamlakatimizda nechta madaniy markazlar faoliyat olib boradi.

A) 80 dan ortiq

B) 100 dan ortiq

S) 50 dan ortiq

D) 10 dan ortiq.

16. Go'zallik ma'budasi.....

A) Afrodit

B) Anaxita

S) Viktoriya

D) Qayumars

17. So'fiylikdagi oqimlarni aniqlang.

A) Horijiylik, Zaydiylik,

B) Sunniylik, Shiyalik, Vaqobiylik

S) Naqshbandiylik, Yassaviylik, Kubroviylik.

D) Akromiylik, Sunniylik, Naqshbandiylik

18. Sivilizatsiya tushunchasi?

A) ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyoti bosqichini bildiradi;

B) sivilizatsiya o'zining butun konkretligida ob'ektiv reallikdan iborat;

S) sivilizatsiya muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan narsa va buyumlarni o'z ichiga oladi;

D) madaniy qadriyat, madaniy-tarixiy jarayon, ma'naviy ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi;

19. Vorislik tushunchasini ko'rsatib bering?

A) vorislik o'zining butun konkretligida ob'ektiv reallikdan iborat;

B) vorislik ijtimoiy hodisalarning siyqa talqini;

S) vorislik organizmlarning irsiyati va o'zgaruvchanligi haqidagi ta'limot;

D) vorislik taraqqiyot jarayonida yangilik bilan eskilik o'rtasidagi zaruriy aloqa.

20. "Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilm talab qilinglar", iborasi kimga tegishli?

A) Arastuga;

B) Forobiyga;

S) Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V)ga;

D) Suqrotga;

21. Eng qadimgi turkiy yozuvni aniqlang?

- A) Chu yozuvi;
- B) O`rxun yozuvi;
- S) Qashg`ar yozuvi;
- D) Oltoy yozuvi;

22. Sho`rolar davridagi mafko`ra yakka hokimligi O`zbekistonda og`ir oqibatlariga olib keldi. Quyidagi javoblardan qaysi birida bu o`z aksini topmagan?

- A) xalqlarni tobelikda saqlashni ta'minlashga xizmat qildi;
- B) o`z tarixini unutib yuborishga, ona tilidan voz kechishga xizmat kildi;
- S) milliy madaniyatni rivojlantirmaslikka xizmat qildi;
- D) mamlakatni asta-sekinlik bilan rivojlanishiga olib keldi.

24. XX asr Turkiston ma'rifatparvarlik harakatining dasturi bo`lgan "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir", degan g`oya kimga tegishli?

- A) Maxmudxo`ja Behbudiy;
- B) Munavvar Qori Abdurashidxon o`g`li;
- S) Abdurauf Fitrat;
- D) Abdulla Avloniy;

25. Avesto nechta qismdan iborat.

- A) 2 qismdan
- B) 3 qismdan
- S) 5 qismdan
- D) 4 qismdan

26. Islom dini ilohiyotda qaysi elemetlardan iborat.

- A) Qur'on, Hadis, Hidoya.
- B) Iymon, Islom, Ehson.
- S) Xalifalik, Shialik, Sunniylik.
- D) Iymon, Ibodat, Ehson.

27. Ilm so`zi "Qur'on"da necha marotaba uchraydi.

- A) 1-marotaba
- B) 700-marotaba
- S) 750-marotaba
- D) 1001-marotaba

28. "Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekani u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz" Ushbu fikr muallifi kim.

- A) Abdulla Avloniy
- B) Xo`ja Ahror Valiy

- S) Amir Temur
- D) I.A.Karimov

29. “Qutadg’u bilig” asari qachon yozilgan.

- A)1069 y
- B) 1070 y
- S) 1500 y
- D) 1969 y

30. Insonni abadiylikni belgilovchi omillardan biri ...

- A) tarix
- B) ilm
- S) fan
- D) adabiyot

31. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo’lsin. Keltirgan fikr qaysi sarkardaga taaluqli.

- A) Aleksandr Makedonskiyga
- B) Xusayn Bayqaroga
- S) A.Temurga
- D) Z.M Boburga

32. Insonparvar shoir.

- A) A.Jomiy
- B) Gegal
- S) Pushkin
- D)A.Novoiy.

33. “Ilim insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir” deydi ma'rifatparvar...

- A)Abdulla Avloniy
- B) Fitrat
- S) Cho’lpon
- D) Maxmud Xo’ja Behbudiy

34.“Bilgilki komil inson deb shariat, ta’riqat va haqiqatga yetishib bo’lgan odamga aytiladi”.

- A)A.Nasafiy
- B) at-Termiziy
- S) B.Naqshbandiy
- D) A.Navoiy.

35. Milliy o’zlikni anglashning muhim omili....

- A) rostgo’ylik
- B) millatparvarlik

- S) mehnatsevarlik
- D) halollik

36. Iymonning nechta turi mavjud.

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- S) 2 ta
- D) 1 ta

37. Taqvo so'zining lug'aviy ma'nosi.

- A) Ehtiyotsizlik
- B) Bahtsizlik
- S) E'tiqodlilik
- D) Yomon ishlardan saqlanish.

38. Quyidagilardan qaysi biri ma'naviy madaniyatga kirmaydi?

- A) mehnat qurollari;
- B) qoyatosh yozuvlari;
- S) og'zaki dostonlar;
- D) qoyatosh suratlari;

39. «Moddiy narsalar odamga oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga».
Nuqtalar o'rniga to'g'ri jumlani qo'shing.

- A) komil inson darajasiga ko'taradi;
- B) ma'naviyatini yuksaltiradi;
- S) ruhiy oziq va quvvat bag'ishlaydi;
- D) inson sifatida shakllanishida yordam beradi;

40. "Vatan tuyg'usi" kitobining mualliflari ma'naviyatga qanday ta'rif bergan?

- A) ma'naviyat-jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha;
- B) ma'naviyat-odamning ruhiy va aqliy olamining majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir;
- S) ma'naviyat-insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta'sir qiluvchi tizim;
- D) ma'naviyat-insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy karashlar yig'indisi;

41. "Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviyat, salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir",-degan so'zlar kimga tegishli?

- A) I.A.Karimov;
- B) A.Navoiy;
- S) L.N.Tolstoy;
- D) Arastu;

42. Vatanga hos bo`lmagan fikrni aniqlang?

- A) arabcha G`G` Vatan-ona yurt degani;
- B) vatan-kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug`ilib o`sgan joyi, xududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati;
- S) mavhum Vatan bor tushuncha;
- D) vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o`z ichiga oladi;

43. XX asr Turkiston ma'rifatparvarlarining vakillarini ko`rsating.

- A) Xamid Olimjon, Komil Yashin, P.Kodirov;
- B) Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Shayboniy;
- S) Maxmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o`g`li, Ashurali Zohiriy;
- D) al-Farobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino;

44. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qachon qabul qilingan?

- A) 1997 yil 27 avgust;
- B) 1991 yil 31 avgust;
- S) 1992 yil 8 dekabr;
- D) 1992 yil 2 mart;

45. O`tmishdan qolgan qanday asarlar qadriyat ahamiyatiga ega emas?

- A) diniy aqidalar va qadriyatlarni targ`ib qiluvchi asarlar;
- B) islomgacha bo`lgan davrda yaratilgan bitiklar;
- S) mustaqillikkacha bo`lgan davrda yaratilgan barcha asarlar;
- D) o`tmishda yaratilib, o`z davri siyosatini targ`ib etgan, endilikda o`z umrini yashab bo`lgan asarlar;

46. "Ma'rifatli xalq shijoatli bo`lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo`lgan xalq jaholat panjalarining orasida hamir kabi ezilgandek, a'foli zaminida ham o`z nafsining yoqasini bo`shata olmas...". Bu oqil fikr kimga tegishli?

- A) A.Avloniy;
- B) Farobiy;
- S) A.Cho'lpon;
- D) A.Navoiy;

47. Toshkent shahrida Temuriylar davri tarixi muzeyining hamda Samarqandda va Shaxrisabzda Amir Temur xaykalining ochilish sanasini ko`rsating.?

- A) 1994 yil 9 fevral;
- B) 1993 yil 30 avgust;
- S) 1996 yil 18 oktyabr;

D) 1991 yil 8 aprel;

48. Respublikamizdagi "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi qachon tashkil etildi?

A) 1994 yil 23 aprelda;

B) 1992 yil 30 may;

S) 1993 yil 6 fevral;

D) 1994 yil 10 sentyabr;

49. Musulmon Sharqi xalqlari madaniyatiga o'zining beqiyos xissasini qo'shgan buyuk olimlardan biri Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asari bilan butun dunyoga ma'lumdir. Uning bu asari o'zida...?

A) ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan;

B) islom dinining qonun-qoidalari, axloq odob me'yorlarini mujassamlashtirgan;

S) qadimgi turkiy til asoslarini mujassamlashtirgan;

D) zardushtiylilik dini g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan;

50. Sho'rolar davrida yaratilib, uning siyosatini targ'ib etgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan asarlar biz uchun nima?

A) me'ros, lekin madaniy me'ros emas;

B) tarixiy ahamiyatga ega;

S) milliy qadriyat;

D) tarixiy me'ros;

51. Amir Temur qaysi Evropa mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatgan?

1. Fransiya; 2. A.Q.Sh; 3. Italiya; 4. Ispaniya; 5. Genuya; 6. Angliya; 7. Shvetsiya; 8. Germaniya; 9. Islandiya; 10. Niderlandiya

A) 1,2,3,4;

B) 5,6,7,8;

S) 6,7,8,9;

D) 1,4,5,6;

52. Maxmudxo'ja Behbudiy faoliyati va unga bog'liq dunyoqarashida uch qoidani olg'a surdi. Shu uch qoidani aniqlang.

1. Zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish

2. Jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyatini shakllantirish

3. Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish

4. Davr talablariga javob beradigan an'analarni rivojlantirish

5. Milliy biquqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

A) 2,3,4;

B) 3,4,5;

S) 1,2,3;

D) 1,3,5.

53. Insonparvarlik g`oyalari nimalarda o`z aksini topgan?

- A) xalq og`zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda;
- B) diniy va dunyoviy ta'limotlarda;
- S) ilmiy va siyosiy adabiyotlarda;
- D) xalq og`zaki ijodida;

54. Amir Temur ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon

- A) "Agar dushmaning bosh urib panoxingga kelsa, rahim qilib, yaxshilik va muruvvat ko`rsat";
- B) Kechirimlilik;
- S) "Kuch - adolatda";
- D) Kambag`alparvarlik;

55. Komil insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida Musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturilamal vazifasini o`tagan ko`p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo`lgan quyidagilardan qaysi birida to`g`ri javob berilgan.

- A) "Qutadg`u bilig", "Xamsa", "Al -jabr val-muqobala";
- B) "Tib qonunlari", "Kitob ul-musiqa al-kabir", "Kitob al-Burxon";
- S) "Qobusnoma", "Guliston", "Bo`ston", "Maxbub ul-Qulub";
- D) "Al-jome' as-Sahix", "Ash-shamoilan-Nabaviya", "Devonu lug`otit turk";

56. "Fozil shahar odamlari" asarining muallifini ko`rsating.

- A) Farobiy;
- B) Ibn Sino;
- S) Al-Xorazmiy;
- D) Al-Fargoniy;

57. Bag`dodda "Bayt ul-xikma" tashkil qilgan hukmdor kim?

- A) Ma'mun;
- B) Ismoil Somoniy;
- S) Xorun ar-Rashid;
- D) Ulugbek;

58. Mashhur "Shohnoma" asarining muallifi kim?

- A) Axmad Farg`oniy;
- B) Al-Xorazmiy;
- S) Forobiy;
- D) Firdavsiy;

59. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotining keskin o`zgarish, yuksalish davrini ko`rsating.

- A) IX-XV;
- B) VII-VIII;

- S) VI-IX;
- D) XII-XVIII;

60. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmon qachon qabul qilingan?

- A) 1996 yil 9 sentyabrda
- B) 1999 yil 20 noyabrda
- S) 1996 yil 21 dekabrda
- D) 1994 yil 7 mayda

61. Mamlakatimizda xalqning ma'naviy kamolatiga qanday yondashilmoqda?

- A) regional muammo sifatida
- B) konkret etnik masala sifatida
- S) umumdavlat siyosati sifatida
- D) ilmiy-nazariy muammo sifatida

62. O'zbekistondagi demokratik taraqqiyotning pirovard maqsadlari nima?

- A) kuchli davlat tizimini tarkib toptirish
- B) fuqarolik jamiyatini barpo etish
- S) butun hokimiyatni o'z-o'zini boshqarish organlariga topshirish
- D) konfederativ davlat tuzish

63 Mamlakatning nurli kelajagini yaratish maqsadida quyidagilardan qaysi birini birinchi galda o'zgartirish kerak?

- A) jamiyatni
- B) davlat tizimini
- S) iqtisodiyotni
- D) ongni, tafakkurni

64. Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlang.

- A) huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;
- B) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda yuridik ta'lim tizimini rivojlantirish;
- S) aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- D) A, V, S.

65. Huquqiy ong darajasi ko'proq nimalarga bog'liq?

- A) huquqlardan xabardorlikka;
- B) qonunlarga itoatkorlikka;
- S) qonunlarni bilishga;
- D) huquqiy atamalarni bilishga;

66. Huquqiy madaniyatli kishi qanday bo`lishi kerak?

- A) huquqiy bilimlarga ega bo`lgan;
- B) muomala madaniyatiga ega bo`lgan;
- S) huquqiy bilimlarni amaliyotda tadbiq eta oladigan;
- D) A, S;

67. Jamiyat va fuqarolar oldida kim mas'ul hisoblanadi?

- A) Prezident va Oliy Majlis;
- B) jamoat birlashmalari;
- S) bosh prokuror;
- D) Konstitutsiyaviy sud;

68. Amir Temur davlatni mustahkamlashda amalga oshirgan ishlarini ko`rsating.

- A) savdogarlarga, hunarmandlarga, shayxlarga va islom diniga tayandi;
- B) ichki va tashqi savdoni yo`lga qo`ydi, ilm-fan, adabiyot, san'at taraqqiyoti uchun qulay sharoitlar yaratdi;
- S) zabt etilgan mamlakatlardan olimu fuzalolarni, iloxiyotchilarni, san'at namoyandalarini Samarqandga olib keldi;
- D) hamma javoblar to`g`ri.

69. An'analarda qanday tushunchalar aks etadi?

- A) xalq dahosi, turmush tarzi, madaniy kamolot darajasi;
- B) xalq dostonlari, afsonalari, maqollari;
- S) turmush tarzi, xalq hunarmandchiligi;
- D) madaniy yodgorliklar, urf-odatlar;

70. An'analar qanday vazifalarni bajaradi?

- A) kishilarni turmush tarzini tartibga soladi;
- B) ma'naviyatni taraqqiy ettiradi;
- S) xalq hunarmandchiligi, obodonchilikni, mehr-oqibatni yuksaltiradi;
- D) kishilarni boshqarish, uyushtirish, ularning hamjihatligini ta'minlash;

71. Quyidagi an'analardan qaysi biri umuminsoniydir?

- A) Vatanga muhabbat;
- B) oilaga sadoqat;
- S) ota-onaga mehr-muhabbat;
- D) hamma javoblar to`g`ri.

72. Buyuk ipak yo`li keng ma'noda nimani anglatadi?

- A) Xitoy, O`rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo yo`li;
- B) Sharq va G`arb o`rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat, diplomatik va madaniy - ilmiy aloqalar yo`li;
- S) Xitoydan Evropagacha bo`lgan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar yo`li;

D) A, V;

73. «Vatan» soʻzining maʼnosini koʻrsating?

- A) kindik qoni toʻkilgan joy;
- B) inson tugʻilib oʻsgan mamlakat;
- S) ota-onasi tugʻilib oʻsgan hudud.;
- D) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tugʻilib oʻsgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati;

74. Vatan tushunchasi bilan mustahkam bogʻliq boʻlgan tushunchani koʻrsating?

- A) xalq madaniyati;
- B) xalq anʼanalari;
- S) urf- odatlari;
- D) hamma javoblar toʻgʻri.

75. Kishining shakllanishida yetakchi oʻrin tutuvchi qadriyatlarni koʻrsating.

- A) xalq madaniyati;
- B) xalq anʼanalari;
- S) urf- odatlari;
- D) hamma javoblar toʻgʻri.

76. Qanday tushuncha kishining oʻzi tugʻulib oʻsgan, kamol topgan joy, zamin, oʻlkaga boʻlgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va maʼnaviy-axloqiy xislatlari, fazilatlarini aks ettiradi?

- A) millatchilik;
- B) fuqarolik jamiyati;
- S) xurfikrlilik;
- D) vatanparvarlik;

77. Qaysi sohada vatanparvarlik tuygʻusini namoyon qilish mumkin?

- A) ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meʼroslarni toʻplash, oʻrganish, avaylab saqlash va targʻib qilishda hamda tabiatni muhofaza qilishda;
- B) ota-bobolardan meʼros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilish va izlanishda;
- S) xalqining milliy tuygʻusini rivojlantirish, milliy yuksalish gʻoyalarini targʻib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli elat va milatlar oʻrtasidagi doʻstlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlashda;
- D) hamma javoblar toʻgʻri.

78. Demokratiya soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?

- A) xalq hokimiyati;
- B) eʼtiqod, ishonch;
- S) fuqarolik jamiyati;
- D) qonun ustuvorligi;

79. Yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) liberallik;
- B) konservatorlik;
- S) istiqbolchilik;
- D) jadidchilik;

80. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy-musulmon o'lkalarida shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan harakat nomini ko'rsating?

- A) yosh buxoroliklar;
- B) yosh xivaliklar;
- S) istiqbolchilik;
- D) jadidchilik;

81. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlarini ko'rsating.

- A) Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish hamda "Usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo'lga olib chiqish;
- B) milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;
- S) turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

82. Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy, tarixiy shakllarini ko'rsating.

- A) Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy O'rol;
- B) Turkiston;
- S) Buxoro;
- D) Hamma javoblar to'g'ri.

83. Jadidchilik harakatining Turkistondagi yetakchilarini ko'rsating.

- A) Gasprali Ismoilbey, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloq Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin;
- B) Munavvar Qori, Bexbudiy;
- S) Usmonxo'ja, Fitrat;
- D) Xoja Paxlavon Niyoz Xoji;

84. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish kimlar tomonidan ilgari surilgan?

- A) Gasprali Ismoilbey, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloq Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin;
- B) Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon;
- S) Usmonxo'ja, Fitrat;

D) Xoja Paxlavon Niyoz Hoji;

85. «Insonparvarlik» so`zining ma'nosini ko`rsating?

- A) jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui;
- B) jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjixatlilik nazariyasi va amaliyoti;
- S) jamiyat taraqqiyotining, ya'ni uning bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o`tishining asosiy tur va shakllaridan biri;
- D) odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo`lishi uchun ko`rashish, insonning baxt- saodati, teng huquqligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishga shart - sharoitlar yaratish.

86. O`z asarlarida inson erkinligini, uning qadr-qimmatini, insonparvarlik g`oyalarini olg`a surgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Siino;
- B) Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat;
- S) Avaz O`tar, Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat;
- D) Hamma javoblar to`g`ri.

87. Ijtimoiy hayot bilan bog`lik turli qarash va g`oyalar, voqea va hodisalarni xayoliy tarzda hikoya qiluvchi xalq og`zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan birini ko`rsating.

- A) roman;
- B) qissa;
- S) hikoya;
- D) afsona.

88. Afsonalar nimalarga asoslanadi?

- A) xayoliy voqea-hodisalarga;
- B) voqea va shaxslar haqida hikoya qiluvchi tarixiy xodisalarga;
- S) jangnoma tipidagi qahramonliklarga;
- D) Hamma javoblar to`g`ri.

89. Odamlar, xalq va jamoalarning hayotida muhim sanalgan, keng nishonlanadigan tantanali kun nima deb ataladi?

- A) arafa;
- B) xayit;
- S) tug`ilgan kun;
- D) bayram;

90. Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo`lida birgalikda harakat qilishga undovchi g`oyani ko`rsating.

- A) bunyodkor g`oya;
- B) vayronkor g`oya;
- S) insonparvarlik;
- D) vatanparvarlik;

91. Bir davlatning, boshqa davlat yoki davlatlar ustida siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o`rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot tushunchasini ifodalovchi g`oyani ko`rsating.

- A) fashizm;
- B) kommunizm;
- S) internatsionalizm;
- D) buyuk davlatchilik shovinizmi;

92. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning “Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari” kontsepsiyasi kim tomonidan asoslab berilgan?

- A) Amir Temur;
- B) Alisher Navoiy;
- S) Islom Karimov;
- D) Xayriddin Sultonov;

93. Mehr-muruvvat, adolat, to`g`rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko`plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuini ko`rsating.

- A) hamjihatlik;
- B) baynalminallik;
- S) insonparvarlik;
- D) komillik.

94. Zardushtiylkning muqaddas kitobi “Avesto”da nima komillikning asosiy mezon sifatida talqin etilgan.

- A) halol mehnat;
- B) mehr-muruvvat;
- S) adolat, to`g`rilik;
- D) vijdon, or-nomus, iroda;

95. Xalqning, millatning o`tmish tarixiy taraqqiyot yo`lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo`lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo`shgan buyuk xissalarini bilib olish nima deb ataladi.

- A) tarixiy xotira;
- B) Vatanga muhabbat;
- S) o`z-o`zini anglash;
- D) tarixiy me`rosni o`rganish;

96. Millat mavjud bo'lishi uchun . . . asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi.

Jumlani to'ldiring.

- A) til, davlat, xudud;
- B) til, xudud va ma'naviyat;
- S) xudud, davlat ramzlari, konstitusiya;
- D) ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat;

97. Har bir millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadryatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiylikni tushunib etish nima deb ataladi?

- A) milliy o'zlikni anglash;
- B) vatanparvarlik;
- S) insonparvarlik;
- D) ma'rifatparvarlik;

98. Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati qanday sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi?

- A) milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa;
- B) millatning manfaatlariga, ayniqsa sha'ni, qadr qimmatiga, obro'-e'tibori, g'ururi paymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda;
- S) millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyatida;
- D) Hamma javob to'g'ri.

99. "Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe' qilishni istagan kuchlar avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi", degan jumlaning muallifi kim.

- A) Konfutsiy;
- B) M.D.Skobelev;
- S) I.A.Karimov;
- D) Suqrot;

100. Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

- A) Konfutsiy;
- B) Gegel;
- S) Sitseron;
- D) Suqrot;

101. Vatanparvarlik deganda quyidagilarning qaysilarini anglash joiz?

- 1.O'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- 2.Qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy me'roslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;

3.Xalqimizning, ajdodlarimizning go`zal va ma'noli urf-odatlarini, rasm-rusm va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish:

4.Ajoyib vatandoshlar-ajdodlar nomi bilan, ularni ulug` ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularni ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo`lish:

5.Shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish:

6.Turon zaminni himoya qilib, tomirdan ohirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo`lgan qahramonlarni yod etish:

7.Asrimizning 20-50 yillari va nihoyat 80 yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag`onlarda qamoq va surgun a'zoblarni boshdan kechirgan va halok bo`lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik:

8.Bu aziz va go`zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash unga hamisha sadoqatli bo`lishdir

A) 1, 2, 3, 4;

B)5, 6, 7, 8;

S) 1, 3, 5, 7;

D) hamma javob to`g`ri.

